



AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA MOBIL TELEFONLARNING YOSHLAR PSIXIKASIGA TA'SIRI

Bo'ltakova Dilrabo Mustafqulovna

Jizzax viloyati G'allaorol tumani

42-umum ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot texnologiya asri va uning insonlar hayotidagi o'rni va ahamiyati hamda yoshlar ongiga ijobiy va salbiy ta'sirlari haqida fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: axborot, texnologiya, shaxs, ijtimoiy tarmoq, gadjetlar, tajovvuskor, kompyuterga qaramlik, mobil telefon,

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yurtimizda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va rivojlantirish borasida olib borgan siyosati hozirgi kunga kelib o'z natijalarini ko'rsatmoqda. Bu, o'z navbatida, yosh avlodning zamonaviy bilim olishi, bemorlarga sifatli va tezkor xizmat ko'rsatish salohiyatini oshirishi bilan ahamiyatlidir. Shundan kelib chiqib, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish borasida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda bir millionta Internet tarmog'iga keng polosali ulanish portlari o'rnatilib, ularning umumiy soni 3 millionga yetkazildi. Bundan tashqari, 32 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalari qurildi.

Ma'lumotlar uzatish tarmog'ining o'tkazuvchanlik qobiliyati viloyat markazlari darajasida 2 barobarga, tuman markazlari darajasida esa 4 barobar oshdi. Xizmat miqyosini kengaytirish maqsadida 5 mingtadan ortiq mobil aloqa baza stansiyasi



o'rnatilib, ularning jami soni 32 mingtaga yetkazildi va aholi maskanlarida uning qamrovi 98 foizga hamda yuqori tezlikdagi yo'nalishi 90 foizga yetkazildi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining izchil rivojlanishining yana bir muhim omillaridan biri sohada raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni ichki va tashqi bozorlarda ilgari surish, innovatsion ishlanmalarni rag'batlantirishdir.

Asosiy qism

Ta'lim tizimida ham milliy dastur talablarini amalga oshirishda so'zsiz yangi axborot texnologiyalariga asoslanilmoqda. Ta'lim tizimini rag'batlantirmay turib, fuqarolik jamiyatini qurish mumkin emas. Bunday ta'lim tizimi turli qarashlar tizimidan emas, balki jarayonlardan iborat bo'lishi kerak. Mamlakatimizning har tomonlama taraqqiy etishini ta'minlash va kafotlatlash uchun ta'lim tizimi jadal rivojlanishi kerak. Hozirgi axborot tarmoqlari jadal rivojlanishi davrida yangi texnologiyalarni yaratish va tarqatish xususiyatlari o'zgaradi va bu quyidagi yo'nalishlar bo'yicha sodir bo'ladi: birinchidan, raqobatchilik ancha kuchliligi bilan ajralib turuvchi zamonaviy dolzarb bozor sharoitlariga ko'nikmalar shakllanganligi avvalgidan ko'ra ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi. Texnologiyalarni uzatish va tarqatish –bu unchalik oson jarayon emas. Ikkinchidan, texnologiyalar qimmatini tan olinishini aks ettiruvchi yangi dolzarb qoidalarni ishlab chiqish ham katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Deyarli, barcha mamlakatlar tomonidan ma'qullangan yangi qoidalar intellektual mulkni himoya qilish rejimini kuchaytirishni ta'minladi. Kompyuterdan barcha sohalarda foydalanilayotgan hozirgi davrda uning imkoniyatlari to'g'risida soatlab gapirish mumkin. Shaxsiy kompyuter talabalar, muhandislar, yozuvchi va jurnalistlar ishini osonlashtiradi. Kompyuter san'atning yangi sohasi kompyuter grafikasi va animatsiyasi paydo bo'lishiga sabab bo'lganligi ham barchaga ma'lum. Kompyuterdan talabalar turli ijodiy hamda mustaqil va diplom ishlarini, muhandislar esa chizmalarni aniq chizishda foydalanadilar. Kompyuter murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirib, natijalarni jadvallar va grafiklar shaklida taqdim etadi. Hozirgi kunda kompyuterdan foydalanishning chegarasi yo'q, kattalar ham, bolalar ham foydalana oladigan, chet tili, fizika, matematika



va hatto musiqa chalishni o‘rgatuvchi dasturlar mavjud. Kun davomida ishlab toliqib, uyga qaytayotganda qiziqarli o‘yinlarni o‘ynab dam olish mumkin. Nihoyat –Internet imkoniyatlari borasida so‘z yuritib o‘tirishning hojati ham yo‘q. Sababi internetdan foydalanish bu-butun dunyo yangiliklaridan xabardor bo‘lish, yer kurrasining har qanday nuqtasi bilan tez aloqa o‘rnatish vositasi ekanligi hozirgi davrda barchaga ma’lum. Boshqaruv faoliyati, huquq, iqtisod sohasi, zamonaviy axborot texnologiyalari tez suratlarda rivojlanib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari bizning hayotimizga keskin kirib keldi. Va undan insonlarning qutilishi aqlga sig‘mas darajada mushkuldir. Axir inson qo‘lida u uchun juda qulay, zeriktirmaydigan narsa bo‘lgandan undan voz kechishni xohlarmidi?! U orqali inson ob-havoni, istalgan davlatining poytaxtini, orzusidagi joylarni ko‘rish, bilish imkoniyatiga ega. Ammo biz sezmaydigan yoxud shunchaki sezishni xohlamaydigan muammo va kamchiliklar mavjud. Juda ko‘p odamlar o‘z imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanmaydilar va kun bo‘yi ijtimoiy tarmoqlarga vaqt sarflaydilar. Ijtimoiy tarmoq ularning “ikkinchi uyi”ga aylangan, albatta virtual. Eng achinarli statistikaga e’tibor bering: zamonaviy bolalarning har ikkinchi 6 yoshliklarida har birida telefon, har uchdan birida barcha ilovalarni yuklash imkoniyati mavjud planshet bor. Ular bu gadjetlardan turli o‘yinlar o‘ynash, multfilm va boshqa videolar tomosha qilishlari mumkin, afsuski bu ular uchun foydali bo‘lmaydi. Ko‘p o‘yinlar, multfilmlar tomosha qilish inson ruhiyatiga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatadi, bola psixikasini barqaror shakllanishiga to’sqinlik qiladi. Ular o‘ta asabiy, tajovuskor, mehrsiz, atrofdagilarni yomon ko‘rish bilan ulg‘ayishlari mumkin. Biz qabul qilayotgan barcha ma’lumotlar axborot texnologiyalari mahsulidir. Ulardan to‘g‘ri foydalanmaslik yo‘ldan adashish va bolalarda o‘z illyuziyalarida yashashga olib keladi. Bu jarayonlar atrofimizdagi dunyoni va o‘zimizni to‘g‘ri qabul qilishga halaqit beradi. Shuni tushunish kerakki rivojlanayotgan axborot texnologiyalarini inson o‘z hayotiga o‘zi olib kiradi. Hozirgi kunda ko‘plab insonlar hayotini internet, kompyuter, uyali aloqa vositalarisiz tasavvur etolmaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, kompyuterdan insonlar jamiyat va o‘zi uchun foydali bo‘lgan ko‘plab loyihalar yaratmoqda. Ilm-fan taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. Shu bilan birga “Kompyuter



giyohvandligi”ga uchragan bolalar, o’smirlar va kattalar ham yo’q emas. Mazkur atama 1990-yilda paydo bo’ldi. Insonlarning kompyuterga qaramligini aniqlash maqsadida turli tadqiqotlar o’tkazildi. Tadqiqotlar natijasida So’rovda qatnashgan 3500 kishidan, internetga qaramlik 2% ga tashkil etadi. Bu unchalik ham yomon emas, ammo bu tadqiqot dunyo aholisi 7 million ekanligida olingan. Shu bilan birga kompyuter bolalar va kattalarda stressga moyillikni kuchaytirishi aniqlandi. Va bular kompyuter ma’lumotlarining yo’qolishi, kompyuterning nosozligi, ishdan chiqishi va qotib qolishi, axborotning haddan tashqari ko’p yuklamasi, o’yinlar va internetga qaramlikda ko’rinadi. Stress insonda kuchli asab qo’zg’alishlarini yuzaga keltiradi, oxirgi bosqich-depressiyaga olib keladi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, talabalarning 39 foizi kuniga 3 soatdan ko’proq vaqtni internetda o’tkazadilar. Talabalarning 8 foizi uchun yuzma-yuz emas, balki internet orqali insonlar bilan muloqot qilish osonroq. Ularning haqiqiy muloqotning afzalligi va qadriligini bilganlar ko’p ekani quvonarli holat.

Xulosa o’rnida axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo’lgan bo’lsada, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o’ziga xos xususiyati shundaki insoniyat hayotini busiz tasavvur etish qiyin. Axborot texnologiyalari inson hayotining barcha jabxalarida intellectual faoliyatning rolini oshirish bilan bog’liq obektiv jarayon hisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirish xalqimiz turmush darajasini yaxshilashga, ijtimoiy extiyojlarni qondirilishiga, iqtisodni o’sishi va fan-texnika taraqqiyotining jadallashishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermatova, H. M. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo’llanilishi. In International scientific and practical conference "the time of scientific progress" (Vol. 2, No. 5, pp. 107-113).



2. Shermatova, X.M., Maxammadjonov, J. (2023). Fan va ta'lim rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 788-792.
3. Шерматова, Х. М. (2018). Параллельное микропрограммирование алгоритма вычисления стандартных функций.
4. Mamirovich, I.S. (2022). Finlyandiya Va O'zbekistonda Ta'lim Tizimini Sifatini Solishtirma Taxlili. *Miasto Przyszłości*, 29, 347-350.
5. Mirzaakbarov, D. D. (2021). Directions for the introduction of new information technologies in education. *Экономика и социум*, (4-1 (83)), 211-214.
6. Sidikjonovna, I.D., & O'rinboyevich, T.F. (2022). Axborot Texnologiyalarini O'qitish Tizimini Integratsiyalash. *Miasto Przyszłości*, 29, 283-285